
Vol. 2, No. 1 (2026)
ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



Vol. 2, No. 1 (2026)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI

Z.O.Abdullayeva
Farg'ona davlat universisteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda maktabgacha yosh davridagi bolaning ruhiy salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida bolaning ruhiy salomatligining shakllanishida oilaviy muhit, ona-bola munosabatlari, emotsional bog'lanish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda onalarning psixologik holati muhim omil ekanligi aniqlangan. Tadqiqotda John Bowlbyning bog'lanish nazariyasi hamda Sydney Lovibondning DASS-21 metodikasi asosida onalarning depressiya, xavotir va stress holatlari o'rganildi. Empirik natijalar asosida ishlaydigan, o'qiydigan va uy bekasi bo'lgan onalar farzandlarining ruhiy holatidagi o'ziga xos jihatlar aniqlandi. Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalar ruhiy salomatligini mustahkamlash hamda psixoprofilaktik ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ruhiy salomatlik, maktabgacha yosh, ijtimoiy-psixologik omillar, ona-bola munosabatlari, bog'lanish nazariyasi, emotsional rivojlanish, depressiya, xavotir, stress, DASS-21 metodikasi, psixologik salomatlik.

Аннотация. В данном исследовании научно проанализированы социально-психологические факторы, влияющие на психическое здоровье детей дошкольного возраста. В ходе исследования установлено, что важными факторами формирования психического здоровья ребёнка являются семейная среда, отношения между матерью и ребёнком, эмоциональная привязанность, социальная поддержка, а также психологическое состояние матерей. В исследовании на основе теории привязанности John Bowlby и методики DASS-21 Sydney Lovibond были изучены состояния депрессии, тревожности и стресса у матерей. На основе эмпирических результатов выявлены специфические особенности психического состояния детей работающих, обучающихся и домохозяек-матерей. Результаты исследования имеют важное значение для укрепления психического здоровья детей дошкольного возраста и организации психопрофилактической работы.

Ключевые слова: психическое здоровье, дошкольный возраст, социально-психологические факторы, отношения матери и ребёнка, теория привязанности, эмоциональное развитие, депрессия, тревожность, стресс, методика DASS-21, психологическое здоровье.

Abstract. This study scientifically analyzes the socio-psychological factors affecting the mental health of preschool children. The research identified that family environment, mother-child relationships, emotional attachment, social support, and mothers' psychological condition are significant factors in the formation of children's mental health. The study examined mothers' levels of depression, anxiety, and stress based on the attachment theory of John Bowlby and the DASS-21 methodology developed by Sydney Lovibond. Empirical findings revealed specific characteristics in the mental condition of children whose mothers are employed, studying, or homemakers. The research findings are important for strengthening the mental health of preschool children and organizing psycho-preventive interventions.

Keywords: mental health, preschool age, socio-psychological factors, mother-child relationships, attachment theory, emotional development, depression, anxiety, stress, DASS-21 methodology, psychological well-being.

KIRISH

Jahonda salomatlik shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning eng muhim omillaridan biri bo‘lib, insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga hamda jamiyat farovonligiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ruhiy salomatligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, ularning kelajakdagi shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Shu davrda bolaning shaxsiyati shakllanib boradi, uning kelgusidagi taraqqiyoti, jamiyatga moslashuvi va ta’limdagi yutuqlari uchun muhim asos vujudga keladi. Shu jihatdan, bolalar ruhiy salomatligiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy hamda psixologik omillarni atroflicha tadqiq etish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Dunyoda shaxsning salomatlikka bo‘lgan qadriyatli munosabatini o‘rganishning ustuvorligi psixologik tadqiqotlarda hayot tarzining o‘zgarishi bilan bog‘liq ekanligi o‘rganilmoqda.

Zamonaviy jamiyatda oilaviy, ijtimoiy va psixologik omillarning bolalar ruhiyatiga ta’siri ortib bormoqda. Ayniqsa, uch yoshgacha bo‘lgan bolalar ongining rivojlanishida psixologik muhit va ijtimoiy ta’sirlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Erta

yoshdagi psixologik salomatlik buzilishlari kelgusida nevroz, stress va boshqa psixologik muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ushbu masalani chuqur ilmiy o‘rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ruhiy salomatlik - bu odamlarga hayotdagi stresslarni yengish, o‘z qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, yaxshi o‘qish va ishlash hamda o‘z jamiyatiga hissa qo‘shish imkonini beradigan ruhiy farovonlik holatidir. U insonning ichki resursi sifatida instrumental ahamiyatga ega bo‘lib, insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi (JSST). Insonning ruhiy salomatligi barcha davrlarda ham dolzarb masalalardan biri hisoblangan. Shuning uchun ham ko‘plab olimlar o‘z davrlarida bu sohaga diqqat qaratganlar.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Ruhiy salomatlik tushunchasi xalqaro tibbiy-psixologik adabiyotlarda ko‘pincha patologiya yo‘qligi bilan cheklanmaydi, balki emotsional, ijtimoiy va kognitiv funksiyalarning muvozanatli ishlashi, stressga chidamlilik va rivojlanish vazifalarini bajarish qobiliyatini qamrab oladi. Mazkur ta’rif ruhiy salomatlikni dinamik holat sifatida ko‘rsatadi: bola ma’lum stressorlar sharoitida ham moslashuv mexanizmlarini ishga tushira olsa, ruhiy salomatlik indikatorlari nisbatan yuqori bo‘ladi va salomatlik “resurs” sifatida ko‘riladi hamda u ijtimoiy muhit tomonidan qo‘llab-quvvatlanganda barqarorlashadi [4;48].

“Ruhiy salomatlik” atamasi Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan 1979-yilda e’lon qilingan “Bolalar aqliy salomatligi va psixosotsial rivojlanish” mavzusidagi ma’ruza munosabati bilan dolzarb bo‘ldi [2;15].

Bu borada Sharq olimlari ham ko‘plab ilmiy qarashlarini bayon etganlar. Qadimgi Xorazm hududida miloddan ilgari VI asrda bitilgan zardushtiylarning muqaddas kitobi - “Avesto”da tibbiyot va psixologiyaga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan. “Avesto” uch kitobdan iborat bo‘lib, uning birinchi kitobi “Vendidat”da tibbiyotga oid muhim ma’lumotlar bayon qilingan, unda jismoniy va ruhiy poklanishga doir qonun-qoidalar majmuasi o‘z aksini topgan. “Avesto”da ko‘rish, eshitish, hid va ta’m bilish markazlari inson miyasida joylashgani haqidagi qarashlar uchraydi.

Asarda hayot markazi suyak iligida joylashganligi ham ta’kidlab o‘tilgan. Bundan tashqari, kitobda inson anatomiyasi va fiziologiyasiga oid qiziqarli ma’lumotlar keltirilib, inson salomatligini saqlash yo‘llari ham bayon qilingan. Shuningdek, kitobda odam anatomiyasi va fiziologiyasiga oid juda qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Inson salomatligini saqlash yo‘llari yoritilgan [3;26].

Eronda tavallud topgan mashhur mutafakkir Abu Bakr al-Razi (865-925) tibbiyot tarixida chuqur iz qoldirgan olimlardan biridir. U o‘z davrining yetuk tabiblaridan bo‘lib, tarixiy manbalarda bemorlarni davolashda juda ehtiyotkor va mas’uliyatli yondashgani e’tirof etiladi. Yangi dori vositalarini bemorlarda qo‘llashdan avval ularni hayvonlarda sinab ko‘rgan. Ar-Roziy davolash jarayonida ruhiy ta’sir ko‘rsatish usullariga, shuningdek, parhezga katta ahamiyat bergan. U mijoz, falajlik, jinsiy hayot gigiyenasi, gigiyenik tadbirlar va dorishunoslikka oid ko‘plab risolalar muallifi bo‘lib, ularning ayrimlari G‘arb tillariga tarjima qilinib, xorijda ham keng o‘rganilgan.

Olim o‘zi boshqargan shifoxonada “kasallik tarixnomasi”ni yuritish tizimini joriy etgan va bemorning holatini davolashning ilk kunlaridan boshlab muntazam yozib borgan. Bu esa kasallik kechishini batafsil kuzatish hamda bemorlarni davolash samaradorligini tahlil qilish imkonini yaratgan. Kuzatuvlar asosida olim kasalliklarning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini chuqur o‘rganib, tibbiy profilaktika hamda psixogigiyena fanlarining shakllanishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Shuningdek, u shifokorning kasbiy burchi va tibbiy maslahat berish masalalari haqida ham qimmatli fikrlarni yozib qoldirgan.

Inson tabiati va uning ruhiy dunyosini o‘rganishda yetakchi o‘rin tutadigan ushbu bog‘liqlik poydevorini tushunish uchun John Bowlby tomonidan asos solingan “Bog‘lanish nazariyasi” fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi. Boulbi nazariyasiga ko‘ra, bolalikning dastlabki yillarida ona (yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxs) bilan shakllangan bog‘lanish turi bolaning butun hayoti davomidagi ruhiy salomatligi, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchi va stressga chidamlilik darajasini belgilab beruvchi omil sifatida qaraladi.

Mazkur ijtimoiy-psixologik so‘rovnomaning asosiy maqsadi - ona hamda farzandining, J. Boulbi tasnifiga ko‘ra shakllangan 4 ta bog‘lanish turining (xavfsiz, xavotirli-qarshilik ko‘rsatuvchi, qochuvchi/inkor etuvchi va dezorganizatsiyalashgan/tartibsiz bog‘lanish) namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlashdan iborat [1;69].

Shu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi vazifalar amalga oshirildi: ona va bola o‘rtasidagi emotsional aloqa darajasini empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilish.

1. Xavfsiz bog‘lanish: bolaning ruhiy salomatligi yuqori bo‘lib, his-tuyg‘ularini erkin ifodalaydi, onaga ishonadi va tashqi muhitni faol o‘rganadi.


2. Xavotirli bog‘lanish: bola onadan ajralishda o‘ta og‘riqli munosabat bildiradi, doimiy diqqat talab qiladi, ruhiy holatida xavotirlanish darajasi yuqori bo‘ladi.

3. Qochuvchi bog‘lanish: bola o‘z hissiyotlarini yashiradi, onaga nisbatan sovuqqon va begonalashgan bo‘ladi, muammolarini ichiga yutadi.

4. Dezorganizatsiyalashgan bog‘lanish: eng murakkab guruh bo‘lib, bolaning xulq-atvorida ketma-ketlik bo‘lmaydi, tajovuzkorlik yoki chuqur qo‘rquv belgilari kuzatiladi, ruhiy salomatlik darajasi zaif hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi tahlilda respondentlardan olingan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma natijalari, statistik ko‘rsatkichlar va ularning psixologik interpretatsiyasi batafsil bayon etildi.



	ishlaydi	o'qigan	uy bekasi	ishlaydi	o'qigan	uy bekasi
	Qishloq			Shahar		
a-variant	12%	20%	30%	12%	10%	18%
b-variant	15%	12%	17%	14%	6%	8%
c-variant	6%	10%	4%	4%	0%	8%
d-variant	8%	6%	2%	6%	10%	4%

1-rasm. Biror yumush sababli bolangizni vaqtincha tashlab ketganingizda o‘zini qanday tutadi? (yoki tutgan 3-yoshligida)

Tadqiqotimiz davomida shahar hududida yashovchi respondentlarning ishlaydigan onalari 12%, o‘qiydigan onalari 10%, uy bekasi bo‘lgan onalari esa 18% ushbu savolimizga “qisqa xavotir bildiradi, keyin tinchlanadi” degan javobni berishdi. Bunga sabab, bola onaning vaqtincha yo‘qligini dastlab xavotir bilan qabul qilsa-da, tezda o‘zini tinchlantirib, emotsional muvozanatni tiklay oladi. Bu esa bolaning ichki “xavfsiz baza” modeli shakllanganini ko‘rsatadi.

Ishlaydigan onalarda bola ajralishga moslashgan bo‘lsa-da, emotsional reaksiya o‘rtacha darajada saqlanishi, o‘qiydigan onalarda emotsional barqarorlik

mavjud bo‘lsa-da, ayrim vaziyatlarda sezgirlik kuzatilishi, uy bekasi bo‘lgan onalarda esa doimiy yaqinlik va barqaror emotsional muloqot tufayli bolaning tezroq tinchlanishi aniqlandi.

Biz tadqiqotimizda quyidagi omillarni aniqlash maqsadida Sydney Lovibondning DASS-21 metodikasidan foydalandik. Tadqiqotimizga Farg‘ona shahri hamda Toshloq tumanidan 100 nafar onalar va ularning farzandlari jalb etildi. Shulardan 50 nafari qiz bolalar, 50 nafari esa o‘g‘il bolalardan iborat.

1-jadval natijalariga ko‘ra, DASS-21 metodikasining onalar faoliyati bo‘yicha natijalarida o‘rtacha arifmetik qiymatlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi (t=5,996*; p<0,05). Bunga ko‘ra, ishlaydigan, o‘qiydigan va uy bekasi bo‘lgan onalar natijalari taqqoslanganda, “Depressiya shkalasi” bo‘yicha o‘qiydigan onalarning ko‘rsatkichi ishlaydigan hamda uy bekasi bo‘lgan onalarnikiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Bunga sabab, bolaning ruhiy holati ko‘p jihatdan uning eng asosiy parvarishlovchi insoni - ona bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlariga bog‘liqdir. Aynan shu davrda, ya’ni 0–3 yosh oralig‘ida bola uchun ona asosiy emotsional qo‘llab-quvvatlovchi, xavfsizlik manbai hamda ijtimoiy tajriba beruvchi shaxs hisoblanadi.

1-jadval

DASS-21 metodikasining onalar faoliyati bo‘yicha natijalari (n=100)

Shkalalar	Onalar faoliyati	n	M Rank	H	P
Depressiya	ishlaydi	40	55,92	5,996*	0,05
	O‘qiydi	20	56,6		
	uy bekasi	40	42,02		
Xavotir	Ishlaydi	40	59,92	13,931***	0,001
	O‘qiydi	20	57,2		
	uy bekasi	40	37,72		
Stress	Ishlaydi	40	57,71	9,641***	0,008
	O‘qiydi	20	57,68		
	uy bekasi	40	39,7		

*p<0,05; **p<0,01

O‘qiydigan onalarda esa ijtimoiy rol yuklamasining ortishi (talaba sifatidagi majburiyatlar, vaqt taqchilligi, akademik bosim) sababli bola bilan o‘tkaziladigan

vaqt va muloqot sifati qisqarishi bolaning emotsional ehtiyojlari to‘liq qondirilmasligiga olib keladi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holat bolada emotsional deprivatsiya, ya’ni yetarli darajada mehr, e’tibor va yaqinlik olmaslikni yuzaga keltiradi. Natijada bolada barqaror emotsional tayanch shakllanmaydi va u o‘zini himoyasiz his qiladi. Bundan tashqari, bolada onaning psixologik holatini bevosita qabul qilish jarayoni kechadi, u sub’ekt sifatida onaning hissiy fonini ichki tajribaga aylantiradi.

Onalarda zo‘riqish, charchoq yoki beqarorlik ustun bo‘lsa, bu holat bola psixikasida ham aks etadi. Bu esa bolada emotsional tushkunlikka moyillikni shakllantiradi. Yana bir muhim ijtimoiy-psixologik omil - bu muloqot hamda qo‘llab-quvvatlashning sifati va davomiyligi hisoblanadi. Ona bilan yetarli va sifatli muloqotning yetishmasligi bolaning o‘zini anglashi va o‘ziga baho berishi, shuningdek, emotsiyalarni boshqarish jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Natijada bolada ichki salbiy kechinmalarni mustaqil qayta ishlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Yuqoridagi omillar yig‘indisi keyingi yosh bosqichlarida depressiv belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni shaxsda emotsional tushkunlik, qiziqishlarning pasayishi, o‘ziga nisbatan ishonchsizlik va ichki bo‘shliq hissi shakllanishi kuzatiladi. Demak, bolaning ruhiy salomatligi ko‘p jihatdan uning erta ijtimoiy muhitiga, ayniqsa, ona bilan bo‘lgan emotsional aloqaning sifatiga bog‘liq hisoblanadi va bu omil keyinchalik depressiv holatlarning shakllanishida muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qilishi o‘tkazilgan tadqiqot natijasida o‘z isbotini topdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolaning ruhiy salomatligi ko‘p jihatdan oilaviy muhit, ayniqsa, ona bilan bo‘lgan emotsional yaqinlik va bog‘lanish sifatiga bog‘liq. John Bowlbyning bog‘lanish nazariyasi asosida o‘tkazilgan tahlillar xavfsiz bog‘lanish turiga ega bolalarda emotsional barqarorlik, ijtimoiy faollik va ruhiy moslashuv darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Xavotirli, qochuvchi va dezorganizatsiyalashgan bog‘lanish turlari esa bolalarda ichki xavotir, emotsional beqarorlik hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar bilan tavsiflandi.

XULOSA

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan Sydney Lovibondning DASS-21 metodikasi natijalariga ko‘ra, onalarning psixologik holati bolaning ruhiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, o‘qiydigan va ishlaydigan onalarda stress, xavotir hamda depressiv holatlarning yuqoriroq kuzatilishi bola bilan emotsional muloqot sifatiga salbiy ta’sir etishi mumkinligi isbotlandi. Uy bekasi

bo‘lgan onalarda esa bola bilan doimiy yaqinlik va emotsional aloqa nisbatan yuqori darajada ekanligi kuzatildi.

Shuningdek, tadqiqotda bolaning ruhiy salomatligini mustahkamlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oiladagi sog‘lom psixologik muhit, ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligi muhim omil ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolaning ruhiy salomatligi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi hamda bolaning kelgusidagi shaxsiy rivojlanishi va jamiyatga moslashuvida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bowlby J. Attachment and Loss. - New York : Basic Books, 2019. 69-b
2. M.T.Isakova Inson ruhiy salomatligining ijtimoiy-psixologik omillari (DSc) avtoreferati F-2022 y 15 b
3. Zarifboy Ibodullayev Tibbiyot psixologiyasi To’ldirilgan qayta 3 nashri Toshkent-2019 y 26 b
4. World Health Organization. Mental health: strengthening our response / WHO. - Geneva : WHO, 2021. - 48

MUNDARIJA

UYUSHMAGAN YOSHLAR VA ULARNING MUAMMOLARI Atabayeva Nargis Batirovna	**4**
TURLI YOSH DAVRLARIDAGI SHAXSLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH VA EMOTSIONAL SOHA O‘RTASIDAGI ALOQADORLIKLAR Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li	**25**
O‘ZBEK VA QIRG‘IZ QIZLARINI ETNIK STEREOTIPLARI VA IJTIMOIY USTANOVKALARINI ILMIY TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI Djuxonova Noxida Xayotjonovna	**33**
ZAMONAVIY SHIFOKORLAR PROFESSIONAL KARERASIDA PSIXOLOGIK OMILLARNING TA’SIRI Arziqulov O‘tkirbek Maxammatovich	**43**
KIMYOVIY ADDIKTATSIYALARDA OILAVIY MUHITNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI Mirashirova Nargiza Anvarovna., Raxmatova Zulxumor Alimovna	**50**
TYUTORLARNING BOSHQARUV USLUBLARI VA ULARNING TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li	**56**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING JINSIY XUSUSIYATLARI Rajabov Murodil Jumaboyevich., Yuldasheva Shoxista Tojialiyevna	**70**
TA’LIM MUHITIDA O‘QUVCHI SHAXSI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI Soliyev Farxodjon Sodiqovich., Akbarova Nigora Axmadjonovna	**78**

MUNDARIJA

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KASBIY O‘ZINI-O‘ZI BELGILASH: MOTIVATSION VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li	**92**
O‘ZBEK VA RUS QIZLARINI OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARINI AMALIY O‘RGANILISHI Usmonova Nargiza Raximjonovna	**102**
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Мирзажонова Элеонора Топволдиевна	**110**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RUHIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI Z.O.Abdullayeva	**117**
HARBIY FAOLIYATDA ZAMONAVIY STRESS OMILLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi	**125**
PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA MOLIYAVIY STRESS MUAMMOSINING ILMIY TADQIQ ETILGANLIK DARAJASI Sotvoldiyeva Nargiza Abdukarimjon qizi	**136**
КОРРЕЛЯЦИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО И ТЕМПЕРАМЕНТНОГО КРИТЕРИЕВ ВЕРТНОСТЕЙ В СФЕРЕ КОГНИТИВНОЙ СОЦИОНИКИ Туллекова Карина Сергеевна	**143**
TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARNING SHAKLLANISH OMILLARI VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	**157**

MUNDARIJA

MURAKKAB BICHIMDAGI USTKI KIYIMLARNI MODELLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Sattorova Ra’no Abdunazar qizi., Sindarova Shoxista Maxammatovna	**166**
O‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIK SIYOSATINI YURITISHDA ETNOTURIZMNING O‘RNI Shavkat Bobojonov	**173**
BUXORONING OILAVIY VA JAMOAVYI MAROSIMLARI (MAHALLIY ERONIYLAR MISOLIDA) Iroda Kalonova	**177**
ELLIPTIK GAPLARNING STILISTIK MAQOMI Rasulov Zubaydullo Izomovich	**183**
PRAGMATIC AND COGNITIVE ANALYSIS OF CONCEPT “PEACE” IN POLITICAL SPEECH Rakhmatova Mehriniso Musinovna., Rakhmonova Jasmina Anvarovna	**188**
TIL EVOLYUTSIYASIDA O‘ZGARUVCHANLIK VA TEJAMKORLIK PRINSIPLARI Qobilova Nargiza Sulaymonovna	**194**
ZAMONAVIY INTERNET-MULOQOTDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR FENOMENI Jalolova Nigina Zavqiddin qizi	**203**

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/